XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 14 - noyabr VI-57-180-5-71-K/22 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 1-3-chorak qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chikib, Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. Karmana tuman hokimligi tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Karmana tuman byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3.O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasi talablaridan kelib chiqib, tuman hokimining Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashiga taqdim etigan taklifiga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 1-3 chorak daromadlarning reja ko‘rsatkichlaridan oshgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq, tuman Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorlariga asosan 2-3-ilova muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

4.Tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ ajratilgan tashkilotlar rahbarlariga tuman mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning sarflanishi va natijadorligi to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq

deputatlari Karmana tuman Kengashiga taqdim etib borishi vazifasi yuklatilsin.

5.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.Urinov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (U.Rustamov) bilan birgalikda:

ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

6.Tuman hokimligi moliya bo‘limi (U.Rustamov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Azamov) ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (T.Urinov) hamda Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakillantirish va ijro etish, byudjet islohotlari komissiyasi raisi (S.Vafoyev)ga topshirilsin.

Tuman Kengashi raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-57-180-5-71-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq xamda 1-2 va 3-chorak yakunida daromadlarning rejadan orttirilib bajarilgan mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar

T/R	Tashkilot nomi	Maqsadi	Jami ajratilgan mablag' (ming.so'mda)	Shu jumladan	
				Tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag'lari xisobidan	Tuman mahalliy byudjetining 1-2 va 3-chorak yakunida daromadlarning rejadan orttirilib bajarilgan qismi hisobidan
1	Tuman hokimligi	Xizmat avtomobiliga siqilgan gaz sotib olish xarajatlariga	12 600,0		12 600,0
2	Tuman hokimligi	Tuman hokimligi balansidagi xizmat avtomobillarini tamirlash xarajatlariga	14 704,0		14 704,0
3	Tuman hokimligi	Tuman xokimi o'rinbosari J.Ro'zievni AQSh davlatiga xizmat safari bilan bog'liq xarajatlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash xarajatlariga	24 000,0		24 000,0

4	Tuman hokimligi	Tuman hokimligiga xo’jalik mollari sotib olish xarajatlari uchun	2 100,0		2 100,0
5	Tuman hokimligi	Xalq deputatlari Karmana tuman kengashining 2022 yil 26 apreldagi VI-48-63-5-71-K/22-sonli qaroriga asosan tuman hokimligi hodimlariga ustama to’lovlari uchun	117 704,0	60 433,0	57 271,0
6	Tuman hokimligi moliya bo’limi	Xalq deputatlari Karmana tuman kengashining 2022 yil 26 apreldagi VI-48-63-5-71-K/22-sonli qaroriga asosan tuman hokimligi moliya bo’limi muduri ustama to’lovlari uchun	19 296,0		19 296,0
JAMI			**190 404,0**	**60 433,0**	**129 971,0**

Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-57-180-5-71-K/22-son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetning 2-chorak daromadlarning reja ko’rsatkichlaridan oshgan qismi hisobidan ajratilgan mablag’larga kiritiladigan o’zgartirish

T/P	Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori raqami va sanasi	Tashkilot nomi	Maqsadi	Kamay-tiriladigan mablag’
1	22,07,2022 VI-53-118-5-71-K/22	Tuman Mahalla va nuroniylarni qo’llab quvvatlash bo’limiga	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 oktyabrdagi PF-6324-sonli Farmoni ijrosini taminlash maqsadida fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari xodimlarini rag’batlantirish jamg’armasiga (3 foiz)	-35 434,0
x	**ЖАМИ**			**-35 434,0**

Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining
2022 yil 14 noyabrdagi
VI-57-180-5-71-K/22-son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy byudjetning yil boshidagi erkin qoldiq mablag’lari hisobidan ajratilgan mablag’larning iqtisod qilinishi hisobiga kengash qaroriga kiritiladigan o’zgartirish

(mihg.so`m)

T/R	Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori raqami va sanasi	Tashkilot va muassasa nomi	Maqsadi	Kamay-tiriladigan mablag’
1	14,02,2022 VI-44-22-5-71-K/22	Karmana tuman Mahalla va oilani qo’llab quvatlash bo’limiga	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 oktyabrdagi PF-6324-sonli Farmoni ijrosini taminlash maqsadida fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari xodimlarini rag’batlantirish jamg’armasiga (3 foiz)	-34 433,0
2	25,03,2022 VI-46-44-5-71-K/22	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Navro’z MFY hududida ko’cha chiroqlarini o’rnatish bilan bog’liq xarajatlar	-26 000,0
Жами				**-60 433,0**